Oʻzbekistonda ham raqamli iqtisodiyotning ulushi izchil ortib bormoqda. 2023-yilda mamlakatda elektron tijorat bozori hajmi qariyb 1 milliard AQSh dollariga yaqinlashdi.

Ayniqsa, inflyatsiya darajasi va valyuta kurslaridagi oʻzgaruvchanlik sharoitida investitsiyalar samaradorligini pessimistik, realistik va optimistik ssenariylar asosida baholash zarurati yanada ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, marketing faoliyatida real investitsiyalar samaradorligini ekonometrik modellashtirish va prognozlash kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishini taʼminlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion faoliyatni boshqarishning mohiyati va ahamiyati, innovatsion faoliyat sohasida faoliyat yurituvchi menejerlarni konseptual hamda tipologik tahlil qilish, fenomenologiya va taʼsir koʻrsatishning anʼanaviy hamda zamonaviy usullarini tizimlashtirish, shuningdek, boshqaruv shakllari va yetakchilik uslublari boʻyicha koʻplab xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Jumladan, Joseph Schumpeter innovatsiyani “turli yangiliklarni yaratish, rivojlantirish va tarqatish jarayoni” sifatida talqin etadi. Olim oʻz ilmiy ishlari asosida innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning siklik xususiyatlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi hamda innovatsion nazariyaning shakllanishiga muhim hissa qoʻshdi [2].

1980-yillarda Sankt-Peterburg texnologiya universiteti professori V. Kolosov innovatsiyalarni prognozlash usullari, innovatsiyalarni yaratishning ilmiy metodologiyasi, shuningdek, innovatsiyalarni rejalashtirish, tashkil etish va amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish boʻyicha tadqiqotlar olib borgan [3].

S.D. Ilenkova, L.M. Goxberg, S.Yu. Yagudin va U.A. Otajanovlarning taʼkidlashicha, innovatsiya — bu rivojlanish jarayonlarining qonuniyatlarini, innovatsiyalarni shakllantirish va boshqarish mexanizmlarini, ularga moslashish jarayonlarini hamda innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorlikka taʼsirini oʻrganadigan bilim sohasi hisoblanadi [4-5].

Peter Drucker fikricha, “Boshqaruv — bu tartibsiz guruhni samarali, maqsadli va natijador jamoaga aylantiruvchi oʻziga xos faoliyat turi”. Shu nuqtai nazardan, W.J. Reddin menejmentni tashkilot xodimlarini rejalashtirish, tashkil etish, ragʻbatlantirish va nazorat qilish jarayoni sifatida talqin etib, uning asosiy maqsadi tashkilot maqsadlariga samarali erishishni taʼminlash ekanligini qayd etadi [6].

Tadqiqotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, koʻplab olimlar “boshqaruv” va “menejment” tushunchalarini oʻzaro yaqin mazmundagi atamalar sifatida talqin qiladilar. “Menejment” tushunchasini ilmiy muomalaga **алғаш** boʻlib Frederick Taylor kiritgan. U boshqaruvning asosiy vazifalari sifatida mehnat va ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish, resurslarni tartibga solish, ish operatsiyalarini standartlashtirish hamda ish vaqtining aniq hisobini yuritishni belgilab bergan [7].

Menejmentning mazmuniga yaqin yondashuvni Henri Fayol ham ilgari surib, “Menejment — bu bashorat

qilish, tashkil etish, tartibga solish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish jarayonidir", deb ta'kidlagan [8].

Shuningdek, Michael H. Mescon, Michael Albert va Franklin Khedouri menejmentni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va foydani koʻpaytirishga qaratilgan tamoyillar, usullar, vositalar hamda boshqaruv shakllari majmui sifatida talqin etib, boshqaruv samaradorligini oshirish yoʻllari boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borganlar [9].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshqaruvning integratsiyalashgan funksiyasi innovatsion menejer tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur jarayon hamkorlikda ishtirok etish va boshqaruv vakolatlarini uygʻunlashtirish tamoyillariga asoslanib, ilmiy-texnik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv hamda ijtimoiy samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion yetakchilik uslublaridan foydalanish va boshqaruvning zamonaviy shakllarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Belgilangan funksiyalarni samarali amalga oshirish maqsadida korxonaning strategik resurslarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday resurslar tarkibiga axborot, moddiy, moliyaviy, texnologik, energetik hamda inson resurslari kiradi. Har qanday faoliyat, xususan boshqaruv faoliyati, aniq natijalarga erishishga yoʻnaltirilgan boʻlishi zarur. Koʻplab zamonaviy tadqiqotchilar [10, 11, 12] fikriga koʻra, innovatsion faoliyatning asosiy natijasi innovatsiyalar va innovatsion yechimlarning yaratilishi hamda amaliyotga joriy etilishidan iborat.

Belgilangan funksiyalarni tizimlashtirish boshqaruv faoliyatining quyidagi uzluksiz zanjiri bilan bogʻliq holda namoyon boʻladi:

gʻoya → ilmiy tadqiqot → ishlanma → dizayn → ishlab chiqarish → innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish.

Mazkur yondashuv asosida innovatsiyalarni boshqarish funksiyalarining tasnifi ishlab chiqilgan boʻlib, u uchta asosiy funksional yoʻnalishni oʻz ichiga oladi. Shu sababli innovatsion boshqaruv funksiyalarining tipologiyasini tizimli ravishda keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-rasm).




**1-rasm. Innovatsiyalarni boshqarish funktsiyalari tipologiyasi**

Yuqorida keltirilgan jarayonni tizimlashtirishga oid yondashuvlarning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lishiga qaramasdan, bizning fikrimizcha, innovatsion faoliyatni boshqarish jarayonida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy bosqichlari va vazifalarini alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi (2-rasm).

Mazkur model innovatsion faoliyatda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning mantiqiy va izchil bosqichlarini ifodalaydi. Ikkinchi va uchinchi bosqichlarda qaror qabul qilishga tayyorgarlik jarayonida avvalgi bosqichlarda olingan natijalarga aniqlik kiritish yoki ularni qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Bu esa jarayonda qayta aloqa mexanizmi mavjudligini ko‘rsatadi.

Agar har bir bosqichda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining mazmuni va ketma-ketligi batafsil tahlil qilinsa, boshqaruv qarorini tayyorlash bosqichida menejer korxonaning innovatsion faoliyati bilan bog‘liq muammolarni turli ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish orqali aniqlaydi.

Innovatsion faoliyatdagi vaziyatni tashxislash va baholash korxonaning innovatsion imkoniyatlari hamda mavjud tashqi va ichki omillar ta’sirini kompleks tahlil qilishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, muammoli vaziyatni hal etish natijalarini baholash mezonlari ham belgilanadi.

Talabni shakllantirish va ma’lumotlarni yig‘ish bosqichi aniqlangan muammo bilan bog‘liq dolzarb, ishonchli, qisqa va obyektiv axborotlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Muammoni aniqlash va tahlil qilish esa muammoli vaziyatni bartaraf etish natijasida erishilishi lozim bo‘lgan yakuniy maqsad va kutilayotgan natijalarni belgilashga xizmat qiladi (2-rasm).




2-rasm. Innovatsion faoliyat sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish bosqichlari va vazifalari[1]

Boshqaruv qarorini qabul qilish bosqichida menejer mavjud muqobil variantlar ichidan eng ustuvor va samarali qarorni tanlaydi. Qaror qabul qilish jarayonida cheklovlar va mezonlarni shakllantirish muammoli vaziyatni hal etishga xizmat qiluvchi barcha mumkin bo‘lgan harakat variantlarini aniqlash va tizimlashtirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ushbu bosqichda alternativ variantlarning realizm darajasi, maqsadga muvofiqligi va amaliy ahamiyati mezonlari asosida tahlil qilinishi hamda ko‘rib chiqilishi zarur bo‘lgan variantlar soni asoslanadi.

Variantlarni tanlash va baholash jarayonida esa har bir alternativaning afzalliklari va kamchiliklari aniqlanadi, ularning mumkin bo‘lgan natijalari baholanadi hamda tanlangan alternativani amaliyotga joriy etish

1 Muallif ishlanmasi

ehtimoli tahlil qilinadi. Bu esa innovatsion faoliyatda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes sohasida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, institutsional muhit sifati tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligiga, investitsion qarorlar qabul qilish jarayoniga, ishlab chiqarishni tashkil etishga hamda iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Institutsional muhit huquqiy va ma'muriy infratuzilma bilan belgilanib, uning doirasida xususiy tadbirkorlar, korxonalar va davlat organlari milliy farovonlikni ta'minlash maqsadida o'zaro hamkorlik qiladi. Keng ma'noda institutsional muhit institutlar, muassasalar va tashkilotlar majmuasidan iborat tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash sohasida mutanosib davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek, ushbu yo'nalishda davlat mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ko'plab mamlakatlarda maxsus davlat organlari faoliyat yuritadi. Mazkur organlar o'z funksiyalariga ko'ra tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiruvchi hamda uning ijrosini nazorat qiluvchi institutlarga bo'linadi.

Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, siyosiy va huquqiy sharoitlarni yaratish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat boshqaruvini markazsizlashtirish va isloh qilish jarayonlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv davlat boshqaruvining markazlashgan modelidan bosqichma-bosqich takomillashgan boshqaruv tizimiga o'tish, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari salohiyatini oshirish hamda hududiy boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Namangan viloyatida mahalliy boshqaruv tizimini subsidiarlik va moliyaviy mustaqillik tamoyillari asosida rivojlantirish orqali hududiy boshqaruvning samarali mexanizmlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzu doirasida 2019–2022-yillar bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasida viloyatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyati yuzasidan audit tekshiruvlari o'tkazilgan va ayrim kamchiliklar aniqlangan. Jumladan, davlat moliyaviy ko'magini ajratishda ayrim hollarda belgilangan mezonlarga to'liq mos kelmaydigan kichik biznes subyektlariga mablag' yo'naltirilgani kuzatilgan. Bu esa davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlash mablag'laridan foydalanish samaradorligini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Aniqlangan kamchiliklarning umumiy hajmi taxminan 17,2 mlrd so'mni tashkil etgan.

Mazkur holatlar davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish, biznes-rejalar ijrosi samaradorligini oshirish va mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan monitoring tizimini takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi. Shu sababli, nazorat va monitoring funksiyalarini kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi orqali muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Namangan viloyati bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, viloyatga xorijiy investitsiyalar oqimining faol bosqichi 2017-yildan boshlangan bo'lib, o'sha yilda investitsiyalar hajmi 18,6 mln AQSh dollarini tashkil etgan. 2022-yil yakunlariga ko'ra esa ushbu ko'rsatkich 379,0 mln AQSh dollariga yetgan. Natijada, xorijiy investitsiyalar hajmi 2017-yilga nisbatan 20,3 barobarga oshgani kuzatildi (3-rasm).




3-rasm. Namangan viloyatida 2017–2024-yillar davomida to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan xorijiy

investitsiyalar[2]

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qator qaror va farmonlari hamda Davlat investitsiya dasturi doirasida Namangan viloyatida yirik sanoat korxonalarini tashkil etish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Statistik ma’lumotlarga koʻra, 2017-yilda qiymati 0,8 mln AQSh dollariga teng 1 ta, 2018-yilda 35 mln AQSh dollarlik 2 ta, 2019-yilda 45,5 mln AQSh dollarlik 23 ta, 2020-yilda 201 mln AQSh dollarlik 17 ta hamda 2021-yilda umumiy qiymati 134,2 mln AQSh dollariga teng 21 ta yirik loyiha ishga tushirilgan.

2022-yilda esa Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021-yildagi “Oʻzbekiston Respublikasining 2022 — 2026-yillarga moʻljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish toʻgʻrisida”gi PQ-72-sonli qaroriga[3], muvofiq, Davlat investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 214,6 mln AQSh dollariga teng 16 ta yirik loyihani ishga tushirish belgilangan edi. Mazkur loyihalar hamda qoʻshimcha ravishda amalga oshirilgan investitsiya tashabbuslari natijasida jami 18 ta, umumiy qiymati 218,2 mln AQSh dollariga teng loyiha foydalanishga topshirildi. Natijada 4 938 ta doimiy, 6 795 ta mavsumiy hamda qurilish jarayonlarida 203 ta yangi ish oʻrni yaratildi.

2024-yilda Namangan viloyatida oʻzlashtirilgan toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan 2,8 barobarga oshib, 1 368,2 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa viloyatda investitsion muhitning jozibadorligi ortib borayotgani hamda xorijiy investorlarning hududga boʻlgan qiziqishi kuchayganidan dalolat beradi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tomonidan mamlakatda tadbirkorlikning barcha shakllarini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, aholini, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, mikromoliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorlikni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish boʻyicha muhim vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarini nomoliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini shakllantirish ham ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarida foydalanilayotgan investitsiyalar samaradorligining ekonometrik tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga investitsiyalarning ta’siri uchta ssenariy asosida baholandi.

Birinchi ssenariy boʻyicha Namangan viloyati statistika boshqarmasining 2010–2024-yillar ma’lumotlari asosida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi — MICh oʻzgarishiga ta’sir etuvchi quyidagi omillar tanlab olindi:

- kichik biznes subyektlari tomonidan sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari — IchX;
- kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi — AKI;
- kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi — IchQ.

Namangan viloyati kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi oʻzgarishining ekonometrik tahlilini amalga oshirish uchun dastlab natijaviy omil va tanlab olingan omillar oʻrtasidagi, shuningdek omillarning oʻzaro bogʻliqlik darajasi korrelyatsion koeffitsiyentlar asosida aniqlandi [13-15] (1-jadval).

1-jadval

**1-ssenariy boʻyicha Namangan viloyati kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi oʻzgarishiga ta’sir etuvchi omillarning korrelyatsion koeffitsienti[4]**

| | MICh | IchX | AKI | IChQ |
|---|---|---|---|---|
| MICh | 1 | | | |
| IchX | 0,997796 | 1 | | |
| AKI | 0,91203 | 0,705778 | 1 | |
| IChQ | -0,86606 | -0,74799 | -0,56382 | 1 |

Jadval qiymatlariga e’tibor qaratadigan boʻlsak, Namangan viloyati kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi — MICh omiliga ishlab chiqarish xarajatlari — IchX ($r_{MICh,IchX} = 0,997796$) hamda kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi — AKI ($r_{MICh,AKI} = 0,91203$) kuchli

2 Muallif ishlanmasi
3 https://lex.uz/uz/docs/-5801123
4 Muallif ishlanmasi

darajada musbat bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, natijaviy omil bilan kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi — IchQ o‘rtasida ham yuqori darajadagi bog‘liqlik kuzatildi. Bu esa tanlangan omillarning ishlab chiqarish hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Tanlangan omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qiymatlariga ko‘ra, rx1,x2 < 0,8 sharti bajarilganligi sababli omillar orasida multikollinearlik holati kuzatilmadi. Bu esa model uchun tanlangan omillarning iqtisodiy va statistik jihatdan to‘g‘ri tanlanganligini hamda keyingi ekonometrik tahlil jarayonlarini davom ettirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Tahlilni davom ettirish maqsadida omillarning o‘lchov birliklari turlicha bo‘lganligi sababli ular bir xil ko‘rinishga keltirildi. Buning uchun barcha ko‘rsatkichlar natural logarifm asosida logarifmlandi va kuzatilayotgan bog‘liqlik asosida regressiya tenglamasi EViews dasturi yordamida aniqlandi (2-jadval) [13-15].

Hisob-kitob natijalariga ko‘ra, 2-jadvaldagi koeffitsiyentlar qiymatlaridan kelib chiqib, quyidagi regressiya tenglamasi hosil qilindi: (2-jadval).

2-jadval

**1-ssenariy bo‘yicha Namangan viloyati kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining ko‘p omilli regressiya tenglamasi**[5]

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Dependent Variable: LNMICH | | | | |
| Method: Least Squares | | | | |
| Date: 06/16/23 Time: 21:41 | | | | |
| Sample: 2010 2024 | | | | |
| Included observations: 15 | | | | |
| | | | | |
| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
| LNICHX | -0.020709 | 0.141812 | -0.146032 | 0.0471 |
| LNAKI | 0.711760 | 0.098435 | 7.230746 | 0.0000 |
| LNICHQ | 0.665498 | 0.426142 | 1.561682 | 0.0528 |
| C | 0.51435 | 1.830126 | 0.28105 | 0.0219 |
| | | | $t_{jad}$=2,201 | |
| R-squared | 0.920557 | Mean dependent var | | 7.703428 |
| Adjusted R-squared | 0.894076 | S.D. dependent var | | 0.992357 |
| S.E. of regression | 0.322973 | Akaike info criterion | | 0.825162 |
| Sum squared resid | 0.938803 | Schwarz criterion | | 0.998993 |
| Log likelihood | -1.363555 | Hannan-Quinn criter. | | 0.789432 |
| F-statistic | 34.76276 | Durbin-Watson stat | | 1.820813 |
| Prob(F-statistic) | 0.000028 | $F_{jad}$=0,258896435 | | |

Aniqlangan 1-regressiya tenglamasi parametrlarining t-Statistic mezonlari bo‘yicha ahamiyatliligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, α = 0,05 va df = 11 bo‘lgan holatda tjad = 2,201 ga tengligi aniqlandi. Ushbu mezon asosida faqat kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi — AKI omili (tAKI = 7,230746 > tjad = 2,201) statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi kuzatildi. Qolgan omillar parametrlarining t-Statistic qiymatlari past bo‘lgani sababli ularning individual ahamiyat darajasi nisbatan past deb baholandi.

Biroq, r = 0,05 darajada model parametrlarining umumiy iqtisodiy mazmuni va modelga ta’siri saqlanib qolayotganligini inobatga olib, ushbu omillarning haqiqiy ahamiyatini retrospektiv sifat mezonlari — MAPE (Mean Absolute Percentage Error — o‘rtacha mutlaq foiz xatosi) va TIC (Theil Inequality Coefficient — Teyl prognoz aniqligining muqobil ko‘rsatkichi) orqali tekshirish maqsadga muvofiq deb topildi (4-rasm) [13-15].

4-rasmda keltirilgan natijalarga ko‘ra, MAPE = 0,312 bo‘lib, bu MAPE < 10% shartini qanoatlantiradi va model prognoz aniqligining yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, TIC = 0,002 < 1 bo‘lgani sababli model prognoz xatoligi juda past darajada ekanligi hamda regressiya tenglamasi parametrlarining barchasi iqtisodiy jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi (4-rasm).

5 Muallif ishlanmasi




| | |
|---|---|
| Forecast: LNMICHF | |
| Actual: LNMICH | |
| Forecast sample: 2010 2022 | |
| Included observations: 13 | |
| Root Mean Squared Error | 0.027824 |
| Mean Absolute Error | 0.024368 |
| Mean Abs. Percent Error | 0.311756 |
| Theil Inequality Coefficient | 0.001792 |
| Bias Proportion | 0.000000 |
| Variance Proportion | 0.000213 |
| Covariance Proportion | 0.999787 |
| Theil U2 Coefficient | 0.099169 |
| Symmetric MAPE | 0.311888 |

**4-rasm. 1-regressiya parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari natijasi**[6]

Logarifmik funksiyalar xossalaridan kelib chiqib, hosil qilingan regressiya tenglamasi potensiallashtirildi va quyidagi ko‘rinishga keltirildi:

$$MICh = \frac{AKI^{0.7} \cdot IChQ^{0.67} \cdot e^{0.51435}}{IChX^{0.02}}$$

Hosil qilingan (1*) regressiya tenglamasining statistik ahamiyatliligi Fisher mezoni asosida tekshirildi. α = 0,05 hamda k1 = 11 va k2 = 3 bo‘lgan holatda Fjad = 8,7633 ga tengligi aniqlandi. Hisoblangan Fisher qiymati esa Fhis = 34,7 ni tashkil etdi. Natijada Fjad < Fhis sharti bajarilganligi sababli regressiya tenglamasining statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi tasdiqlandi.

Bundan tashqari, Durbin–Watson ko‘rsatkichi DW = 1,8 ga teng bo‘lgani sababli modelda avtokorrelyatsiya mavjud emasligi aniqlandi. Bu esa regressiya tenglamasining ishonchliligi va adekvatligini tasdiqlaydi.

(1*) regressiya tenglamasining iqtisodiy talqiniga ko‘ra, ishlab chiqarish xarajatlari 1,0 foizga kamaytirilganda Namangan viloyati kichik biznes subyektlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi qo‘shimcha 1,8 foizga oshishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi 1,0 foizga oshirilsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmi mos ravishda qo‘shimcha 62,2 mlrd so‘m va 195,2 mlrd so‘mga ortishi kuzatildi.

Natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi sharoitda Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari xarajatlar smetasini optimallashtirish, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha qo‘shimcha mexanizmlarni ishlab chiqish hamda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan yanada samarali foydalanish choralarini kuchaytirishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish bo‘yicha o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, hududda elektr energiyasi ta’minotidagi uzilishlar asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli muqobil energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hamda mavjud asosiy vositalarni zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalar bilan bosqichma-bosqich yangilash tavsiya etiladi.

Ikkinchi ssenariy bo‘yicha Namangan viloyati kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi — MICh o‘zgarishiga quyidagi omillarning ta’siri ekonometrik jihatdan baholandi:

- mahsulot sotishdan sof tushum — SST;
- asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi — AKI;
- kichik biznes subyektlarida jami bandlar soni — JBS.

Mazkur omillarning model uchun to‘g‘ri tanlanganligini aniqlash maqsadida dastlab ular o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblab chiqildi [13-15] (3-jadval).

3-jadval

**2-ssenariy bo‘yicha Namangan viloyati kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning korrelyatsion koeffitsienti**[7]

| | MICh | SST | AKI | JBS |
|---|---|---|---|---|
| MICh | 1 | | | |
| SST | 0,967269 | 1 | | |

6 Muallif ishlanmasi
7 Muallif ishlanmasi

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| AKI | 0,91203 | 0,576726 | 1 | |
| JBS | 0,872195 | 0,702438 | 0,763992 | 1 |

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, natijaviy omil — kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (MICh) bilan tanlangan barcha omillar o‘rtasida yuqori darajadagi musbat bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Jumladan, kichik biznes subyektlarining mahsulot sotishdan sof tushumi — SST (rMICh,SST = 0,967269), asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi — AKI (rMICh,AKI = 0,91203) hamda kichik biznes subyektlarida jami bandlar soni — JBS (rMICh,JBS = 0,872195) omillari natijaviy ko‘rsatkich bilan kuchli darajada to‘g‘ri bog‘langanligi kuzatildi.

Shuningdek, omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qiymatlari rx1,x2 < 0,8 shartini qanoatlantirgani sababli modelda multikollinearlik holati mavjud emasligi aniqlandi. Bu esa regressiya modelini keyingi bosqichlarda shakllantirish va ekonometrik tahlilni davom ettirish mumkinligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyot tarmoqlarining muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Ularning rivojlanish tendensiyalarini turli ekonometrik modellardan foydalanish orqali aniqlash mumkin. Xususan, eksponensial, darajali, logarifmik, ko‘rsatkichli, binomial hamda chiziqli funksiyalar iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda samarali qo‘llanilmoqda.

Shundan kelib chiqib, dastlab barcha omillarning turli o‘lchov birliklariga ega ekanligi inobatga olinib, ular natural logarifm asosida logarifmlandi. Keyingi hisob-kitoblar esa EViews dasturi yordamida amalga oshirildi [13-15] (4-jadval).

4-jadval

**2-stsenariy bo‘yicha Namangan viloyati kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining ko‘p omilli regressiya tenglamasi natijalari[8]**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Dependent Variable: LNMICH | | | | |
| Method: Least Squares | | | | |
| Date: 06/16/23 Time: 21:21 | | | | |
| Sample: 2010 2022 | | | | |
| Included observations: 13 | | | | |
| | | | | |
| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
| LNSST | 0.959212 | 0.299158 | 3.206369 | 0.0107 |
| LNAKI | 0.083403 | 0.080091 | 1.041359 | 0.0249 |
| LNJBS | 5.017879 | 0.640944 | 7.828887 | 0.0000 |
| C | -35.47071 | 4.155035 | -8.536801 | 0.0000 |
| | | | $t_{jad}$=2,201 | |
| R-squared | 0.990067 | Mean dependent var | | 7.703428 |
| Adjusted R-squared | 0.986756 | S.D. dependent var | | 0.992357 |
| S.E. of regression | 0.114203 | Akaike info criterion | | -1.254010 |
| Sum squared resid | 0.117382 | Schwarz criterion | | -1.080179 |
| Log likelihood | 12.15106 | Hannan-Quinn criter. | | -1.289740 |
| F-statistic | 299.0207 | Durbin-Watson stat | | 2.193714 |
| Prob(F-statistic) | 0.000000 | $F_{Jad}$=8,7633 | | |

Jadval ma’lumotlarida keltirilgan koeffitsiyentlar qiymatlaridan kelib chiqib, quyidagi regressiya tenglamasi hosil qilindi:

$$LnMICh = 0{,}96LnSST + 0{,}08LnAKI + 5{,}02LnJBS - 35{,}47071$$

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aniqlangan 2-regressiya tenglamasi parametrlarining t-Statistic mezoni bo‘yicha ahamiyatliligi tekshirildi. Bunda α = 0,05 va df = 11 bo‘lganda tjad = 2,201 ga tengligi inobatga olindi.

Natijalarga ko‘ra, kichik biznes subyektlarining mahsulot sotishdan sof tushumi — SST omili bo‘yicha tSST = 3,206369 > tjad = 2,201 hamda kichik biznes subyektlarida jami bandlar soni — JBS omili bo‘yicha tJBS =

8 Muallif ishlanmasi

7,828887 > tjad = 2,201 boʻlganligi sababli ushbu parametrlar statistik jihatdan ahamiyatli deb baholandi.

Qolgan omil, yaʼni kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi — AKI parametrining ahamiyatlilik darajasini aniqlashtirish maqsadida retrospektiv sifat mezonlari — MAPE < 10% va TIC < 1 koʻrsatkichlaridan foydalanildi (5-rasm).

5-rasmda keltirilgan maʼlumotlarga koʻra, MAPE = 0,93 boʻlib, MAPE = 0,93 < 10% sharti bajarilgan. Shuningdek, TIC = 0,0061 < 1 boʻlgani sababli prognoz aniqligi yuqori ekani tasdiqlandi. Bu esa 2-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasi iqtisodiy va statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini koʻrsatadi.

Hosil qilingan 2-regressiya tenglamasi potensiallashtirilib, quyidagi koʻrinishga keltirildi [13-15] (5-rasm).

$$MICh = \frac{SST^{0,96} \cdot AKI^{0,08} \cdot JBS^{5,02}}{e^{35,47071}}$$




| | |
|---|---|
| Forecast: LNMICHF | |
| Actual: LNMICH | |
| Forecast sample: 2010 2022 | |
| Included observations: 13 | |
| Root Mean Squared Error | 0.095023 |
| Mean Absolute Error | 0.072542 |
| Mean Abs. Percent Error | 0.928601 |
| Theil Inequality Coefficient | 0.006121 |
| Bias Proportion | 0.000000 |
| Variance Proportion | 0.002496 |
| Covariance Proportion | 0.997504 |
| Theil U2 Coefficient | 0.341014 |
| Symmetric MAPE | 0.930036 |

**5-rasm. 2-regressiya parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari natijasi**[9]

Ushbu 2*-regressiya tenglamasining statistik ahamiyatliligi Fisher mezoni asosida tekshirildi. **α** = 0,05 hamda k1 = 4 va k2 = 16 boʻlganda Fjad = 8,7633 ga tengligi inobatga olindi. Hisoblangan Fisher qiymati Fhis = 299,02 ni tashkil etgani sababli Fjad < Fhis sharti bajarildi. Bu esa 2*-regressiya tenglamasining statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini koʻrsatadi.

Shuningdek, Durbin–Watson koʻrsatkichi DW = 2,19 ga teng boʻlgani sababli modelda avtokorrelyatsiya mavjud emasligi aniqlandi. Mazkur holat regressiya tenglamasining ishonchli va adekvat ekanligini tasdiqlaydi.

Aniqlangan 2*-regressiya tenglamasiga koʻra, agar tanlangan omillar, yaʼni sotishdan sof tushum va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi alohida-alohida 1,0 foizga oshirilsa, Namangan viloyati kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi mos ravishda 96,5 mlrd soʻm va 8,0 mlrd soʻmga qoʻshimcha oshishi aniqlanadi.

Shuningdek, sohada bandlar soni 9,0 ming nafarga oshirilsa, viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi qoʻshimcha 501,3 mlrd soʻmga yetishi kutilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, institutlarning ahamiyati faqat qonunchilik bazasi bilan cheklanib qolmaydi. Bunda hukumatning bozor mexanizmlari va iqtisodiy erkinliklarga boʻlgan yondashuvi, shuningdek, boshqaruv tizimining samaradorligi muhim rol oʻynaydi. Davlat boshqaruvi jarayonlarini takomillashtirish, byurokratik tartib-taomillarni soddalashtirish, tartibga solish mexanizmlarini optimallashtirish, shaffoflikni kuchaytirish hamda tadbirkorlik subyektlariga koʻrsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish iqtisodiy rivojlanish surʼatlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sud-huquq tizimining mustaqilligi va ishonchliligini taʼminlash investitsion muhitni yanada yaxshilash uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Barcha ssenariylar boʻyicha olingan natijalarni umumlashtirish asosida, hozirgi sharoitda Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalarni aholi bandligini oshirishga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini toʻliq ishga tushirishga hamda energiya resurslaridan samarali foydalanishga yoʻnaltirish eng istiqbolli va samarali yoʻnalishlardan biri ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, investitsion faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi yoʻnalishlarga alohida

9 Muallif ishlanmasi

e’tibor qaratish tavsiya etiladi:

- kichik biznes subyektlarini zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish;
- energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish;
- ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish;
- hududda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali bandlik darajasini oshirish;
- raqamli boshqaruv va marketing texnologiyalaridan samarali foydalanishni kengaytirish.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish hududda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishini ta’minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.08.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4417-sonli Qarori, https://lex.uz/docs/-4472973
2. Joseph Schumpeter. *Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi*. — Moskva: Progress, 1992.
3. Kolosov V.A., Turovskiy R.F. “Yangi rus chegaralari tipologiyasi”. // Rossiya Fanlar akademiyasi xabarlari. Geografiya seriyasi. — 1999. — №5. — 30–47-betlar.
4. Ilenkova S.D., Goxberg L.M., Yagudin S.Yu. va boshqalar. *Innovatsion menejment*. Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. — Moskva: YuNITI, 2000.
5. Otajanov Umid Abdullayevich. “Improving the Efficiency of Using Foreign Investments in Small Businesses”. *European Journal of Business Startups and Open Society*. — Vol. 4, №7, 2024.
6. Peter Drucker. *The Practice of Management*. — Butterworth-Heinemann, 1999.
7. Frederick Winslow Taylor. *The Principles of Scientific Management*. — 1911.
8. Henri Fayol. *Administration industrielle et générale: prévoyance, organisation, commandement, coordination, contrôle*. — Paris: H. Dunod et E. Pinat, 1916.
9. Michael H. Mescon, Michael Albert, Franklin Khedouri. *Management*. 3-nashr. — Cambridge, MA, 1988.
10. Lepeyko T.I., Koyuda V.A., Lukashov S.V. *Innovatsion menejment*. O‘quv qo‘llanma. — Xarkov: INJEK, 2015.
11. Peter Drucker. *The Practice of Management*. — Butterworth-Heinemann, 1999.
12. Alexander Levitin. *Introduction to the Design & Analysis of Algorithms*. — Addison-Wesley, 2003.
13. Bayxonov B.T. *O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiyatini takomillashtirish*. Iqtisod fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2019. — 24 b.
14. Otajanov Umid Abdullayevich. *O‘zbekiston Respublikasi hududlarining investitsion salohiyatini ekonometrik baholashning intellektual faoliyatini takomillashtirish*. Iqtisod fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2022. — 26 b.
15. Isakova Naima Ikromjonovna. *Xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirishda marketing strategiyasini takomillashtirish*. Iqtisod fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 2**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**